V. Y. Uvarova
R. R. Ismailova

Tasviriy san’at
2-sinf

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik



Yangi nashr

Ta’limni rivojlantirish markazi huzuridagi
Ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan

TEKSHIRILGAN
PLAGIATGA QARSHI!
TEKSHIRILGAN

novda
edutainment

Toshkent – 2026

UO‘K: 75.02:373.016(075.3)
KBK 85.31+74.202
U 14

Taqrizchilar:

G. F. Buzikova – Toshkent shahridagi 190-umumiy o‘rta ta’lim maktabining 1-toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi;

T. S. Baluyeva – Toshkent shahridagi 190-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

Shartli belgilar



O‘qituvchingiz bilan o‘rganing



Chizing



Savollarga javob bering



QR-kodni skanerlang



Dars yakuni

ISBN 978-9910-586-49-1

© V. Y. Uvarova, R. R. Ismailova
© “Novda Edutainment”, 2026

Salom, bolalar!

Bu yilgi **tasviriy san'at** darslarida ranglarning ajoyib olamini kashf etishda davom etamiz. Mashhur rassomlar va ular chizgan rasmlar bilan tanishamiz. Rasm chizishning yangi, qiziqarli usullarini bilib olamiz. Atrofimizni o'rab turgan olamni qog'ozda tasvirlashni o'rganamiz. Tasavvurimiz va ijodiy qobiliyatimizni rivojlantiramiz.

Sizga omad yor bo'lsin!

O'quv yili davomida sizga quyidagilar kerak bo'ladi:

- 36 varaqli rasm daftari – 1 dona;
- oddiy qora qalam – 2 dona;
- o'chirg'ich – 1 dona;
- rangli qalamlar – 1 quti;
- flomasterlar – 1 to'plam;
- akvarel bo'yoqlari – 1 quti;
- guash bo'yoqlari – 1 quti;
- mo'yqalamlar – 1 jamlanma;
- suv uchun stakancha – 1 dona;
- nam salfetkalar – 1 qadoq;
- sharbat ichiladigan naycha – 4 dona;
- fartuk – 1 dona;
- yengcha – 1 juft.



Vatanim – O‘zbekiston

O‘zbekiston – boy tabiatga, qadimiy tarixga, qiziqarli an’analarga ega quyoshli va mehmondo‘st yurt. Bu yerda oftob deyarli yil davomida nurlarini sochib turadi. Turli xalq vakillari tinch-totuv yashab, chiroyli me’morchilik, yorqin hunarmandchilik hamda beqiyos shaharsozlik namunalarini yaratadilar.

1

Ushbu darsda Vatanimiz qaysi jihatlari bilan dunyoga nom taratayotganini bilib olasiz. O‘zingiz uni nima uchun yaxshi ko‘rishingizni esa o‘ylab ko‘rasiz.



O‘zbekiston o‘z hunarmandchiligi bilan butun dunyoga mashhur.



to‘qimachilik



kulolchilik



badiiy kulolchilik



so‘zana (kashta)

Mamlakatimizda ko‘plab go‘zal me’moriy obidalar bor. Qadimiy va zamonaviy binolar hamyurtlarimiz hamda yurtimizga tashrif buyurgan mehmonlar ko‘zini quvontiradi.



Registon. Samarqand



“Yangi O‘zbekiston” bog‘i. Toshkent



Temuriylar tarixi davlat muzeyi. Toshkent

- O‘zbekiston dunyoga nimasi bilan mashhur?
- Siz qaysi shahar yoki qishloqda yashaysiz?
- Siz o‘z yurtingizni nima uchun yaxshi ko‘rasiz?

Men tug‘ilgan yurt – O‘zbekiston! U mehmondo‘st va tinchliksevar. Rasmlarda tasvirlanadigan kaptarlar tinchlik va ezgulikni, bayroq esa Vatanimiz faxrini ifodalaydi.


Bu yorqin va qalbga yaqin obrazlarning rasmini birgalikda chizamiz.

Rasm chizish bosqichlari:


1. Bosh uchun – aylana, tana uchun – yarimaylana, dum uchun – uchburchak **chizing**. Tanadan chap va o‘ng tomonga gul yaprog‘iga o‘xshash ikkita egri shakl chiqaring. Bular qanotlarning xomaki shakli bo‘ladi.
2. Boshni tana bilan **ulang**. Qanotlar va dumni patlarga ajrating. Tumshuq va ko‘zni qo‘shing.
3. Aniq chiziqlar bilan **rasmni yakunlang**. Hajm berish uchun ko‘kimtir soyalar qo‘shib kabutarni bo‘yang. Xohlasangiz, fon ham qo‘shishingiz mumkin.



1



2



3



4



5



6



Kuz tuhfalari

Kuzda bog‘larda sersuv, shirin va mazali mevalar pishib yetiladi. Ular o‘zining yorqin ranglari bilan ko‘zlarni quvontiradi. Boy vitaminlari bilan tanamizni to‘yintiradi. Mevalar **rangi**, **shakli** va **o‘lchamiga** ko‘ra turli-tuman bo‘ladi.




Diqqat bilan qarang va qadam-baqadam **nok** rasmini chizing.

Rasm chizish bosqichlari:


1. **Ikkita aylana** chizing, bunda yuqoridagisi biroz kichikroq bo‘lsin. Shakl yaxlit chiqishi uchun ular bir-birining ustiga biroz chiqib tursin.
2. Aylanalarni **tekis chiziqlar** bilan **tutashtiring**. Unga band va barg qo‘shing. Shakl ichidagi ortiqcha chiziqlarni o‘chiring.
3. Nokni sariq rangga **bo‘yang**, fon va nok soyasini qo‘shing.

Nok – sariq, och yashil, yonlari sal qizg‘ish rangli sersuv, shirin meva.


1




2



3



4



Guldon



Loydan yasalgan guldon – odamlar qadimdan o‘z qo‘llari bilan yasab kelgan nafis va foydali buyum. Bunday idishlarda suv saqlangan, ular bilan uylar bezatilgan va hatto odamlar ularni bir-birlariga sovg‘a ham qilishgan.

Loy buyumlarni **kulollar** tayyorlaydi. Qadim zamonlardan buyon odamlar loydan idish-tovoqlar, o‘yinchoqlar, bezaklar va hatto qurilish materiallarini ham yasashgan. **Kulolchilik san’ati** yumshoq loyni mustahkam va chiroyli buyumlarga aylantirish mahoratidir. Buning uchun maxsus asboblar va kulolchilik charxidan foydalaniladi.


Bugun siz **guldon** chizishni bosqichma-bosqich o‘rganasiz va uni o‘zingiz istaganingizdek bezaysiz.

Rasm chizish bosqichlari:


1. Guldonning balandligi va joylashish o‘rnini belgilab, qog‘ozning o‘rtasidan **vertikal chiziq** o‘tkazing. Gorizontal chiziqlar bilan guldon bo‘g‘zining eng keng va eng tor qismini, tubining kengligini hamda guldonning eng keng joyini belgilang.
2. Chiziqlar yordamida **guldon konturini*** **chizing**. To‘g‘rilang. Ortiqcha chiziqlarni o‘chirib tashlang.
3. **Guldonni bo‘yang**, naqshlar bilan bezang. Fon qo‘shing.

***kontur** – predmetning chetidan aylantirib chiziladigan chiziq


1



2



3



4



Kuz palitrasi*

Kuzda barglar yorqin va rang-barang – **sariq**, **qizil**, **olovrang** tusga kiradi.


Bugun siz kuzning iliq palitrasi va o‘z tasavvuringizdan foydalanib **barglar** chizasiz.





Rasm chizish bosqichlari:

1. Qog‘oz varag‘ini **4 ta teng qismga** ajrating. Turli shakldagi barglarni oling va ularning konturini ehtiyotkorlik bilan chizing.
2. Barglar ichiga tomirchalarni qo‘shing va barg **konturini aniqlashtiring**.
3. **Badiiy fon** yarating. Bargchalar atrofiga bir nechta chiziqni shunday chizingki, fon mozaikaga o‘xshab bo‘lak-bo‘lak ko‘rinishda chiqsin.
4. Avval **fonni**, keyin **barglarni** kuzgi chiroyli ranglarga **bo‘yang**. Barglarning konturini to‘q rangli qalam yoki flomaster bilan aylantirib chizib chiqing.

***palitra** – bo‘yoqlar jamlanmasi hamda ranglarning go‘zal uyg‘unligi


1


2


3


4

Kuzgi natyurmort

Natyurmort – rangtasvirning kundalik hayotimizdagi narsalar tasvirlanadigan alohida janri. Bugungi darsda kuzgi natyurmort bilan tanishasiz, gullar, non, mevalar kartinada qanchalik chiroyli aks etishini ko‘rasiz.

E’tiboringizga **Dilorom Mamedovaning** ishlarini havola etamiz.



Guldasta




Qaynoq nonlar


Dilorom Mamedova – O‘zbekistondagi eng mashhur ayol rassomlardan biri. Uning ijodidagi sevimli mavzu ona diyor go‘zalligi, madaniyati va milliy an’analardir.


Rasm chizish bosqichlari:


1. Gorizontal chiziq va **ikkita oval** chizing: qovoq uchun bittasi gorizontal, savat uchun ikkinchisi vertikal holatda bo‘lsin.
2. Yoysimon chiziqlar bilan **qovoqni bo‘laklarga bo‘ling**. Bosqichma-bosqich savatni chizing.
3. Savatni **kuzgi barglar guldastasi** bilan to‘ldiring.
4. Avval **fonni**, keyin esa guldasta solingan savatni, so‘ngra qovoqni **bo‘yang**. Kuzga mos yoqimli ranglardan foydalaning.

Kuzgi natyurmortni bosqichma-bosqich chizing. Unda kuzga xos iliqlik va go‘zallikni aks ettirishga harakat qiling.













Kuz manzarasi

Kuz – eng chiroyli fasllardan biri. Tabiat yorqin sariq, to‘q qizil va olovrang tusga kiradi. Bugungi darsda manzara nimaligini bilib olasiz va kuz tabiatini tasvirlashga urinib ko‘rasiz.

Manzara – tabiat tasvirlangan kartina. Tabiatni tasvirlaydigan rassomlarni **manzarachi rassomlar** deymiz.



Isaak Levitan. “Oltin kuz”

Isaak Levitan (1860–1900) – rus tasviriy san’atining buyuk ustasi. U go‘zal tabiat manzaralari tasvirlangan kartinalari bilan mashhur. Chizgan suratlari yorug‘lik va osoyishtalikka to‘la. Ular kishini tabiat va atrofimizdagi olam go‘zalligi haqida fikr yuritishga undaydi.

Rangli bo‘r yoki **qalamlardan** foydalangan holda tabiat go‘zalligi va iliq kuz fasli kayfiyatini tasvirlang.

Rasm chizish bosqichlari:

1. Birin-ketin **ikkita tepalik konturini** chizing va ularni yashil rangga bo‘yang.
2. Tepaliklar ustiga **daraxtlarning oval shaklidagi** shox-butoqlarini chizing. Kuzning qizil, sariq, olovrang, yashil, to‘q sariq kabi yoqimli ranglaridan foydalaning.
3. **Daraxt tanasiga** malla rang bering.
4. Daraxtlar ostiga soya, osmonda qush kabi **detallarni qo‘shing**.









Tulkicha


Tulki – o‘rmonning eng chiroyli jonivorlaridan biri. **To‘q sariq** – niqoblanish uchun qulay rang. Tulkining bunday rangli yungi unga kuzgi o‘rmonning quruqshab qolgan o‘tlari orasida yashirinib olishiga yordam beradi. **Dumining oppoq uchi** esa bolalari onasining ortidan adashmay ergashib yurishlari uchun xuddi fonarchaga o‘xshab yo‘l ko‘rsatadi.

Bugun siz **to‘q sariq yungli tulkichani** bosqichma-bosqich chizasiz. Keyin esa rasmni kuzgi yaproqlar bilan bezaysiz. O‘rmondagi do‘stingiz quvnoq va yoqimli chiqsin!


Rasm chizish bosqichlari:

1. Qalamda yengil harakatlar bilan **ikkita oval chizing**: bosh va tana. Ularni chiziqlar bilan tutashtiring.
2. **Dum, quloqlar, buruncha, ko‘zlarni** chizing. Ortiqcha chiziqlarni o‘chiring.
3. **Detallar** va **fon** qo‘shing.

2



1



2



3



4



5



6


Naycha bilan chizamiz

Portret – tasviriy san’at janri. Biror inson yoki odamlar guruhi tasvirlangan rasm portret deyiladi.

Bugun siz noodatiy texnika yordamida portret chizishga urinib ko‘rasiz: sochlarni sharbat ichiladigan naycha vositasida hosil qilasiz. Buning uchun qog‘ozga bo‘yoq tomizib, naychadan puflasangiz, u yoyilib, quvnoq va yorqin soch tutamlari – kokillar paydo bo‘ladi.

Rasm chizish bosqichlari:

1. Bosqichma-bosqich bosh, bo‘yin, qo‘llar va kiyim eskizini* **chizing**. Unga ko‘z, burun va og‘izni qo‘shing.



2. Soch chizig‘i bo‘ylab mo‘yqalamda **bir necha tomchi bo‘yoq tomizing**.
3. Unga naychani yaqin olib borib **shunday puflangki**, bo‘yoq tomchilari tepaga va atrofga yoyilib ketsin. Shunda ajoyib soch tutamlari hosil bo‘ladi.
4. Kiyimlar va boshqa detallarni **bo‘yang**.

*__eskiz__ – bo‘lg‘usi kartinaning dastlabki oddiy rasmi

3











1-nazorat ishi

Tasavvur

Tasavvur – sehrli kuch! Uning yordamida eng ajoyib manzaralarni o‘ylab topish mumkin. Rasmlarga qarang: bu yerda **qushlar** ham, **gullar** ham, hatto **baliqlar** ham bor. Ularning barchasi sharbat ichiladigan naycha yordamida yaratilgan. Endi siz ham o‘z sehrli olamingizni tasavvur qiling va naycha yordamida xuddi shunday rasmlarni osonlik hamda quvonch bilan chizing!



